

XII. DEMOGRAFIYA VA MEHNAT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yil 1 iyul holatiga viloyatda doimiy aholi soni 2024,4 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 14,7 ming kishiga yoki 0,7 foizga ko'paydi.

Buxoro viloyatining doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot (2023 yil 1 iyul holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, foiz		
	Jami	shu jumladan:		Jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq
Buxoro viloyati	2024,4	747,1	1277,3	100,7	100,9	100,6
Buxoro sh.	291,6	266,6	25,0	100,8	100,9	100,4
Kogon sh.	64,2	64,2	-	100,8	100,8	-
<i>tumanlar</i>						
Buxoro	176,2	40,3	135,9	100,7	100,8	100,7
Vobkent	147,0	28,5	118,5	100,8	101,1	100,8
Jondor	183,4	35,3	148,1	100,6	100,9	100,5
Kogon	83,5	6,3	77,2	101,1	101,6	101,0
Olot	103,6	39,2	64,4	100,8	101,3	100,5
Peshko'	129,7	16,6	113,1	100,6	100,6	100,6
Romitan	150,0	37,5	112,5	100,7	100,8	100,7
Shofirkon	185,4	42,9	142,5	100,6	100,7	100,6
Qorako'l	170,4	65,5	104,9	100,4	100,6	100,3
Qorovulbozor	19,7	11,3	8,4	101,0	101,8	100,0
G'ijduvon	319,7	92,8	226,9	100,8	101,0	100,8


Doimiy aholi sonida erkak va ayollar to'g'risida ma'lumot
(2023 yil 1 iyul holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi		
	Jami	shu jumladan:	
		erkak	ayol
Buxoro viloyati	2024,4	1014,8	1009,6
Buxoro sh.	291,6	144,7	146,9
Kogon sh.	64,2	31,2	33,0
tumanlar			
Buxoro	176,2	88,3	87,9
Vobkent	147,0	74,0	73,0
Jondor	183,4	90,9	92,5
Kogon	83,5	41,5	42,0
Olot	103,6	51,9	51,7
Peshko'	129,7	65,0	64,7
Romitan	150,0	76,1	73,9
Shofirkon	185,4	93,6	91,8
Qorako'l	170,4	84,3	86,1
Qorovulbozor	19,7	9,8	9,9
G'ijduvon	319,7	163,5	156,2

2023 yil 1 iyul holatiga Buxoro viloyatining shahar va tumanlar kesimida eng ko'p aholi soni G'ijduvon tumanida 319,7 ming kishini (viloyat aholi sonidagi ulushi 15,8 foiz), Buxoro shahrida 291,6 ming kishini (14,4 foiz), Shofirkon tumanida 185,4 ming kishini (9,2 foiz) va Jondor tumanida 183,4 ming kishini (9,1 foiz) tashkil etdi.

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'sish sur'ati

(2023 yil 1 iyul holatiga, foizda)



Hududlar bo'yicha 2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan aholi sonining eng yuqori o'sishi Kogon tumanida (102,2 foiz), Qorovulbozor tumanida (102,1 foiz), Buxoro shahrida (101,9 foiz) va Kogon shahrida (101,9 foiz) kuzatildi.


Aholi soni to'g'risida ma'lumot

(2023 yil, 1-yanvar kishi)

	<i>Jami aholi soni</i>	<i>shundan:</i>			
		<i>0-2 yosh</i>	<i>3-6 yosh</i>	<i>7-16 yosh</i>	<i>0-16 yosh</i>
Buxoro viloyati	2009,7	128,1	152,8	338,0	618,9
Buxoro sh.	289,2	17,6	18,1	46,0	81,7
Kogon sh.	63,7	4,0	4,1	10,5	18,6
<i>tumanlar</i>					
Olot	102,8	6,3	8,1	17,5	31,9
Buxoro	174,9	9,9	12,5	28,8	51,2
Vobkent	145,8	9,4	11,4	23,7	44,5
G'ijduvon	317,1	21,6	25,5	56,1	103,2
Kogon	82,6	5,2	6,8	14,2	26,2
Qorako'l	169,7	11,2	13,7	29,4	54,3
Qorovulbozor	19,5	1,3	1,4	3,0	5,7
Peshko'	128,9	8,4	10,6	22,2	41,2
Romitan	148,9	9,8	12,0	24,6	46,4
Jondor	182,3	11,5	14,6	32,1	58,2
Shofirkon	184,3	11,9	14,0	29,9	55,8

Doimiy aholi sonining asosiy yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi

(2023 yil 1 yanvar; jamiga nisbatan foizda)




2023 yil yanvar-iyun oylarida tug'ilish, nikoh va nikohdan ajralishlar

	<i>kishi</i>			<i>har 1000 kishiga</i>	
	<i>2022 yil</i>	<i>2023 yil¹⁾</i>	<i>o'sish, kamayish</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2023 yil</i>
Tug'ilganlar	19444	20296	852	19,8	20,3
O'lganlar	4262	4185	-77	4,3	4,2
Tabiiy o'sish	15182	16111	929	15,5	16,1
Nikohlar	6531	5936	-595	6,6	5,9
Ajralishlar	1405	1244	-161	1,4	1,2

¹⁾ dastlabki ma'lumot


2023 yil yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar

(har 1000 kishiga)




Doimiy aholi soni

(2023 yil 1 iyul holatiga, ming kishi)



Tug‘ilish. 2023 yil yanvar-iyun oylarida tug‘ilganlar soni 20296 kishini (bu erda va bundan keyin tug‘ilganlar sifatida faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan) tashkil qildi va 2022 yilning shu davriga (19444 kishi) nisbatan 852 taga ko‘paydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 20,3 promilleni tashkil qildi va 2022 yilning shu davriga (19,8 promille) nisbatan 0,5 promillega ko‘paydi.

Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsienti
(2023 yil yanvar – iyun)



Ma'lumot uchun:

2023 yil davomida eng ko'p tug'ilish may oyida, ya'ni 3 744 kishi qayd etilganligi kuzatildi

Tug‘ilish koeffitsientining sezilarli darajada o‘ssishi Kogon (14,9 promilledan 21,1 promillega) va Olot (18,6 promilledan 23,3 promillega) tumanlarida qayd etildi.

Ma'lumot uchun:

Oxirgi 3 yillikda Buxoro viloyatida eng yuqori tug'ilish 2022 yilda, ya'ni 45,1 ming bola, 2021 yilda, ya'ni 43,2 ming bola, aksincha eng past - 2020 yilda, ya'ni 41,5 ming bola qayd etilgani kuzatildi.


O'lim darajasi. 2023 yil yanvar-iyun oylarida o'lganlar soni 4185 kishini tashkil qildi va 2022 yilning shu davriga (4262 kishi) nisbatan 77 taga kamaydi. Mos ravishda o'lim koeffitsienti 4,2 promilleni tashkil qildi (2022 yil yanvar-iyunda 4,3 promille).

Ma'lumot uchun:

2023 yil davomi eng ko'p o'lim may oyida, ya'ni 875 kishi qayd etilgani kuzatildi.


Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsienti

(2023 yil yanvar – iyun)



O'lim sonining kamayganligi barcha tumanlarida kuzatildi. Ro'yxatga olingan jami o'lganlarning 61,0 foiz qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,7 foiz o'simtalardan, 4,4 foiz baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,3 foiz ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 8,1 foiz nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,3 foiz yuqumli va parazitlar kasalliklaridan hamda 12,2 foiz boshqa kasalliklardan vafot etgan.

2023 yil yanvar-iyun oylarida o'lganlarning asosiy o'lim sababi bo'yicha taqsimlanishi
(jami vafot etganlarga nisbatan foizda)



Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3,8 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 5,2 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i minus 1,4 kishiga (2022 yilning shu davrida minus 1,6 kishi) teng bo'ldi.

Migratsiya saldosining yuqori darajasi G'ijduvon tumani (minus 0,3), Shofirkon tumani (minus 0,3) hamda Qorako'l (minus 0,3) tumanida qayd etildi. Migratsiya saldosini ijobiy darajasi Buxoro (plus 0,1) va Kogon (plus 0,1) tumanlarida kuzatildi.

Aholi migratsiyasi
(yanvar-iyun, kishi)

	<i>Kelish</i>		<i>Ketish</i>		<i>Migratsiya saldos</i>	
	<i>2022 yil</i>	<i>2023 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2023 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2023 yil</i>
Buxoro viloyati	2983	3830	4595	5238	-1612	-1408
Buxoro sh.	677	1056	1097	1276	-420	-220
Kogon sh.	242	246	225	286	17	-40
<i>tumanlar</i>						
Buxoro	497	656	345	515	152	141
Vobkent	125	149	289	305	-164	-156
Jondor	107	122	228	297	-121	-175
Kogon	377	402	233	270	144	132
Olot	65	68	199	212	-134	-144
Peshko‘	92	113	157	186	-65	-73
Romitan	115	217	189	245	-74	-28
Shofirkon	170	201	462	507	-292	-306
Qorako‘l	84	90	380	350	-296	-260
Qorovulbozor	138	185	92	120	46	65
G‘ijduvon	294	325	699	669	-405	-344

Nikohlar. 2023 yil yanvar-iyun oylarida FHDYO organlarida 5936 ta nikohlar olingan bo‘lib, 1000 aholiga nisbatan 5,9 ta nikoh tuzish (2022 yilning tegishli davrida 6531 ta) koeffitsienti 6,6 promillega kuzatildi.


Ma'lumot uchun:

2023 yil davomida eng ko'p nikoh yanvar oyida, ya'ni 1 289 ming birlik qayd etilgani kuzatildi

Nikoh tuzish koeffitsientining o'sishi Peshko' tumanida (6,4 promilidan 6,7 promillega) kuzatildi.

Hududlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti ¹⁾

(yanvar-iyun)




Nikohdan ajralishlar. 2023 yil yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 1244 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan 1,2 ta nikohdan ajralishlar (2022 yilning tegishli davrida 1405 ta) nisbatan 1,4 kamaydi. Nikohdan ajralish koeffitsientining sezilarli darajada o'sishi Qorovulbozor tumanida (0,7 dan 1,6 promillega) kuzatildi.

Ma'lumot uchun:

2023 yil davomida eng ko'p nikohdan ajralish yanvar oyida, ya'ni 256 birlik qayd etilgani kuzatildi.

Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti
(yanvar-iyun)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni meyoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda - qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash - oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shilib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayiriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 ta aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti - hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti - hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan ko'chib kelishni statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida aniqlanadi.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududdan uning tashqarisiga ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatdan chiqarishda tuziladigan ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqalarini qayta ishlash natijasida aniqlanadi.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) - hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.